

Chakana kreditlash qo'mitasining
2026 yil "30" apreldagi
2026-24 - sonli
majlis bayoniga 6-sonli ilova

KREDIT MAHSULOTI PASPORTI

Kredit mahsulotining turi va nomi	Avtokredit – Birlamchi
Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchiga qo'yiladigan talablar	O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan, 18 yoshga to'lgan jismoniy shaxs
Kredit valyutasi	O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi – so'm.
Kredit miqdori	Avtotransport vositasini yetkazib berish shartnomasida belgilangan, avtotransport vositasi narxining 75% miqdorigacha
Kredit maqsadi	Barcha turdagi yangi yengil avtotransport vositalarini sotib olish uchun
Kredit muddati	Imtiyozli davrsiz, 60 oydan oshmagan muddatga
Taqdim etish shakli	Avtotransport vositasini ishlab chiqaruvchi korxonaga yoki uning rasmiy dillerlarining hisob raqamiga kredit mablag'larini to'liq ko'chirish yo'li orqali ajratiladi.
Boshlang'ich to'lov	Avtotransport vositasi yetkazib berish shartnomasida belgilangan narxining 25% dan kam bo'lmagan miqdorda
Foiz stavkasi	12 oy muddatgacha – 21,0 %; 24 oy muddatgacha – 23,0 %; 36 oy muddatgacha – 25,0 %; 60 oy muddatgacha – 26,0 %.
Talab etiladigan hujjatlar	A) Shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport, ID-karta, yashash guvohnomasi va h.k.); B) Avtotransport vositasining oldi-sotdi shartnomasi; C) O'zini o'zi band qilganlik to'g'risidagi guvohnoma (<i>kredit o'zini-o'zi band qilgan shaxslarga ajratilganda</i>); D) Mijoz turmush o'rtog'ining kredit hisobiga sotib olinadigan avtotransport vositasini garovga taqdim etilishiga rozilik arizasi. Turmush o'rtog'i mavjud bo'lmagan hollarda, mijoz tomonidan kredit ajratish uchun ariza berilgan kunga nikohi mavjud emasligini tasdiqlovchi hujjat. Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi(lar)ning (mavjud hollarda) daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlar bank tomonidan maxsus tarmoqlar orqali elektron shaklda mustaqil ravishda olinadi. Daromadlarni aniqlash imkoniyati bo'lmagan taqdirda, ularni tasdiqlovchi hujjatlar qarz oluvchidan talab qilinishi mumkin. Bunda daromadlar to'g'risidagi ma'lumotlar kamida oxirgi 6 (olti) oy uchun hisoblandi.
Kredit ta'minoti	• Sotib olinayotgan avtotransport vositasi kredit miqdorining 133.3 foizdan kam bo'lmagan qiymatda garovga qabul qilinadi.

	<ul style="list-style-type: none">• ta'minot bo'yicha garov shartnomasi notarial yoki bank tomonidan mustaqil ravishda rasmiylashtirilgunga qadar qo'shimcha ta'minot talab qilinmaydi.
Kreditni qaytarish tartibi	Annuitet yoki differensial to'lov usulida.
Qo'shimcha shartlar	<ul style="list-style-type: none">• Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi qarz yuki ko'rsatkichi 50 foizdan oshmasligi lozim;• Qarzning daromadga nisbati ko'rsatkichi 8 barobardan oshmasligi lozim;• MIB joriy qarzdorligi bo'lmasligi;• Kredit byurolaridan olingan so'nggi 3 yil muddatdagi kredit tarixi ijobiy bo'lishi lozim. Bunda, 30+ 10 tagacha yo'l qo'yiladi; 60+ 5 tagacha yo'l qo'yiladi. Doimiy rasmiy daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslarga 90+ 1 tagacha yo'l qo'yiladi.